

Sho'rga chidamli mikroorganizmlar — degradatsiyaga uchragan yerlar uchun yechim

Bugungi kunda sho'rlanish va tuproq degradatsiyasi qishloq xo'jaligining eng katta muammolaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, qurg'oqchil hududlarda hosildorlik pasayib, tuproqning tabiiy unumdorligi yo'qolmoqda.



Shu muammoga javob sifatida Fanlar akademiyasi Mikrobiologiya instituti olimlari tomonidan sho'rga chidamli tuproq mikroorganizmlari kolleksiyasi yaratildi. Kolleksiya sho'rangan tuproqlardan ajratib olingan 30 dan ortiq mahalliy, yuqori tuz konsentratsiyasiga chidamli shtamlarni o'z ichiga oladi.



назорат

1000 mM NaCl

2000 mM NaCl



назорат

0,5% NaCl

1% NaCl

5% NaCl

7% NaCl

Ushbu mikroorganizmlar:

- azot, fosfor va kaliyning biologik aylanishini faollashtiradi;
- o'simlik ildiz tizimini rivojlantiradigan fitogormonlar ishlab chiqaradi;
- sho'rlanish va qurg'oqchilikka chidamlilikni oshiradi;
- tuproqning biologik faolligi va strukturasini tiklaydi.

Kolleksiya asosida ishlab chiqiladigan bioo'g'itlar ekologik xavfsiz bo'lib, kimyoviy o'g'itlarga bo'lgan

ehtiyojni kamaytiradi. Ular degradatsiyaga uchragan yerlarni qayta tiklash, tuproq sho'rlanishini pasaytirish va hosildorlikni oshirish imkonini beradi.

Sho'rga chidamli mikroorganizmlar kolleksiyasi — bu strategik milliy resurs bo'lib, unga kiritilgan har bir investitsiya barqaror qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligiga qaratilgan qadamdir.